

QADIMGI POYKENT SHAHRI ILK MASJID MEHROBI

Toshpo'latova Muhabbat Husen qizi

BuxDU Arxeologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada Buxoro vohasidagi Poykent masjididan topilgan ilk o'rta asrlardagi masjid mehrobi o'rganiladi. Ilk bor masjiddagi mehrobni I.K.Malkiel topib o'rgandi. A.Yu.Stepanov va E.P.Stepanova restavratsiya qilganlar. Mehrob ganch parchasidan tashkil topgan.*

Kalit so'zlar: *Poykent, masjid, mehrob, ganch, ohra, sakkiz qirrali yulduz, medalyon.*

АННОТАЦИЯ: *В этой статье рассматривается михраб из мечети раннего средневековья. Мечети была найденный Археологом И.К.Малкиэль. михраб был реставрирован А.Ю.Степановом и Е.П.Степановой михраб сделал из ганча и глины и относится к ранним средней векой. Сделаю из ганча и гленой.*

Ключевые слова: *Пойкент, мечеть, михраб, ганч, охра, восьмиугольная звезда, медальон.*

ANNOTATION: *This article examines the mihrab of the early Middle mosque, found in the city Poikent. Mihrab in the mosque was discovered by the archeologist I.K.Malkiel. A.Yu.Stepanov and E.P.Stepanova restored this mihrab. Mihrab was done of a Ganch and clay.*

Keywords: *Poykent, mosque, mihrab, ganch, ochre, eight-pointed star, medallion.*


Buxorodan 60 km janubi-g'arbda Buxoro hukmdorlarining qarorgohlaridan biri bo'lgan savdogarlar shahri deb nomlangan qadimiy shahar –Poykent xarobalari joylashgan. Uning aholisi Xitoy va boshqa mamlakatlar bilan xalqaro savdo-sotiq bilan shug'ullanib, o'zlarining boyliklarini va shahar obro'sini yaratdilar. Poykent Buyuk ipak yo'li trassasida Amudaryodan keyin birinchi so'g'diy shahri bo'lgan. Uning devorlaridan karvonlarning yo'li Buxoro orqali Samarqand va Toshkentga, Taraz va Siyob orqali Buyuk xitoy devoriga to'g'ri keladi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra Poykent hududida bronza davridan boshlab insoniyat yashay boshlagan. Xuddi shu davrdan boshlab shahar qad ko'tara boshlagan. Bu vaqtda shahar maydoni bir gektar ni tashkil etgan. Poykent noto'g'ri to'rtburchak shaklga ega bo'lib, eng qadimiy qismi ark qismidir. U miloddan avvalgi IV - III asrlarda barpo etilgan. Milodiy V - VI asrlarda birinchi - shahriston, milodiy VI -VII asrlarda ikkinchi - shahriston barpo qilingan. Poykent shahri V - VI asrlarda o'z taraqqiyotining yuqoriga bosqichiga ko'tarilgan bo'lsa, XI asr o'rtalaridan boshlab suv tanqisligi tufayli shaharda hayot to'xtagan. { Семенов Г.Л., 1994, с.166-167 }

1913 yilda L.A. Zimin tomonidan Poykent shaharchasida ilk arxeologik tadqiqotlari boshlanadi. 1939-1940 yillarda esa shaharchani Rossiyaning Ermitaj muzeyining ilmiy xodimi A.Yu. Yakubovskiy, 1940 yillarda V.N.Kesaev va V.A. Shishkin kabi tadqiqotchilar arxeologik tadqiq etdilar. XX asrning 70 yillaridan boshlab O'zbekiston arxeologiya institutining ilmiy xodimlari A.R. Muxammadjonov, J.Mirzaaxmedovlar

hamda Ermitajning sharq bo'limining ilmiy xodimi G.L.Semenov ishtirokida arxeologik qazishmalar o'tkazildi. {Мухамеджанов,1990,с.130} Ko'p yillik arxeologik tadqiqotlar natijalari 1999 yildan boshlab chiqib turadigan Buxoro arxeologik ekspeditsiyalari materiallarida umumlashtirilgan.

Arxeolog I.K.Malkiel 2001 yilda shaxristonII mahallasida qazishma ishlarini o'tkazish jarayonida mehrob parchasini topdilar. Mehrob parchasi to'liq holda bo'lmagani tufayli A,YU.Stepanov va E.P.Stepanovalar qazishma joyiga chaqirilgan edilar. Ular mehrob parchasini dala laboratoriyasida restavratsiya ishlarini boshlagan edilar.

Poykentdan topilgan masjid mehrobi arkasimon mehrob qoldig'i.To'liq saqlanmagan.Past qismi restavratsiya qilinmagan. Arkaning ichki qismi geometrik va o'simliksimon naqshlar bilan bezatilgan.Ganch o'ymakorligi uslubi.Hamda detallarida qizil, ohra va ko'k ranglar bilan bezak berilgan.



Parcha topilgan o'ymakor panelning yuqori o'ng qismidir. O'ng va yuqori qismida burchakning bir qismi (kengligi 6,5 sm) saqlanib qolgan.Parchaning yuqori chap burchagining katta qismi yo'qolgan, yo'qotishning pastki cheti bo'ylab 2 sm kenglikdagi yoyli chiziq hosil qiluvchi ikkita kesish,qizil bo'yoq izlari bilan bir xil chiziq qismini festonlar bilan o'rab oladi. Silliqli fonning saqlanib qolgan qismida rang-barang qatlam izlari mavjud bo'lib, ular orqali o'simlik bezaklarining naqshlari kuzatiladi.Gips qatlaminin g qalinligi 0,4-0,8 sm.

Ta'riflangan qismdan pastda, g'arbiy devordan 1,9 m va janubdan 0,7 m masofada, zich loy gips qatlami(qalinligi 2 sm) orqali, yuzi pastga qarab yotgan ko'p qavatli o'yilgan ganchning yana bir qismi ochildi. Yon tomonning balandligi 8 sm u oldingi qismning yon tomoniga parallel ravishda, xom gips qatlami orqali 2 sm masofada joylashgan bo'lib, dala qazish paytida devorga ilgari tutashgan tomonlarning qirralari aniq darajaga to'g'ri kelganligi qayd etilgan; o'yilgan ganchning yuqori va pastki qismlari orasidagi gips qatlami bir xil naqshlarining yuqori va pastki qismlarga nisbatan yo'nalishi o'zaro bog'liq. Va bu ganch panellari bitta devorda joylashgan degan xulosaga kelishimiz mumkin va birinchi, oldingi qism XI asrning boshlariga to'g'ri keladigan ikkinchi qism bilan qoplangan.Panelning old tomonida bir nechta o'yilgan ganch parchalari topilgan, ular o'ng tomoni pastga mahkam bosilgan. { Семенов,Мирзаахмедов и др.2003,с.73}

Devorda ganch ikki qatlamda joylashgan edi. Birinchisi-markaziy taroqli o'yilgan qizil ohra bilan qoplangan medalyon va o'simlik bezaklari bilan. Parchaning o'lchamlari 0,74 x 0,63 m, uning ustiga sakkiz qirrali yulduz shaklidagi markaziy medalyon o'yilgan. Uning atrofida geometrik va o'simlik bezaklari qo'yilgan. Mehrobning pastki qismida araba grafik yozuv joylashgan. Yozilish uslubi gulli Kufi. Yozuv panelning kengligi bo'ylab joylashgan, unda "Mulk Allohnikidir" degan yozuv tushurilgan.



Arxeologlar aytishi bo'yicha poykentdan topilgan mehrob XI asrga oid hisoblanadi. Buxoro obilarini oladigan bo'lsak, masjidi Namozgoh XII asrga oid. Aynan Namozgoh masjidi mehrobi hozirga qadar saqlanib qolgan. Bu mehrob xom g'ishtdan qurilgan. Mehrobning yuqori qismi saqlanib qolgan. Mehrob ustidagi tasma yengil g'ishtdan yasalgan oddiy bezaklar bilan to'ldirilgan va fon sifatida qizil g'ishtlardan foydalanilgan. { Нилсен 1956, ст 63, 64 } Mehrob kamar bilan o'ralgan va unda ko'p takrorlangan so'z „ALMULKU LILLAH“ ya'ni „Alloh shohligi“ yoki „hokimyat allohga tegishli“ degan yozuv uchraydi. Yozuv to'g'ri burchakli uslubda yozilgan „Kufi“ uslubida yozilgan. { Нилсен 1956, ст 63, 64 }.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. История и археология Турана
2. Мухамеджанова А. Р., Г. Л. Семенов. Исследование городских стен Пайкенда (результаты работ 1981 г. на шахристане II). История материальной культуры Узбекистана. Вып. 19. Изд. «ФАН». Ташкент. 1990. с. 130.
3. Раскопки в Пайкенде в 2002 году. САНК-ПЕТЕРБУРГ. 2003
4. Семенов Г. Л. Структура Согдийского города раннего средневековья. Т.: 1994. - Б. 166- 167.
5. Нилсен. В. А. „Монументальная архитектура бухарского оазиса“ Ташкент. 1956. с. 63. 64
6. Ремпель Л. И. 1961 : Архитектурный орнамент Узбекистана. История развития и теория построений.
7. Ашуров Я. С. Бухара / Под ред. Намазова Д. Н. — Т.: Узбекистан, 1968.